

NR 00007 -sonli shartnoma  
«Iste'molchi» larga ichimlik va oqova suvi xizmatlarini ko'rsatish uchun

«05» 01 2022 y.

Ushbu shartnoma «Navoiy suv taʼminoti» MChJ, Nurota tuman boʻlimi, keyingi oʼrninda «Tâminotchi» deb yuritiladi. Nizom asosida faoliyat yurituvchi direktor Bozorov Olimjon Amonboevich, shaxsida, bir tomonidan va keyingi oʼrninda «Iste'molchi» deb yuritiluvchi Nizom asosida ish olib boruvchi direktor Нурбек Садиков, ikkinchi tomonidan, quyidagilar haqida tuzildi:

(F.I.O.)

### I.Shartnoma predmeti

1.1. 2022 yil uchun suv yetkazish hajmi uchun tuzilgan shartnomaga muvofiq yuridik tashkilotlari (bundan buyon matinda II guruh «Iste'molchi»lari deb yuritiladi) uchun suv yetkazish 8675 narx boʻyicha 345 m<sup>3</sup>ni, oqova suv xizmati uchun 8100 narx boʻyicha \_\_\_\_\_ m<sup>3</sup>ni:

1 m<sup>3</sup> ichimlik suv uchun 7500 soʻm (+QQS 15%), +50 soʻm (maxsus ustama xaq)ni;

1 m<sup>3</sup> oqova suv uchun 7000 soʻm (+QQS 15%), +50 soʻm (maxsus ustama xaq)ni tashkil qilmoqda.

Shu tariqa shartnomaning umumiy qiymati 298875 soʻnni tashkil qildi. (summa yozuv bilan)

Shu jumladagi, budjetdan tashqari mablag'lardan \_\_\_\_\_ soʻm budjetdan tashqari mablag'lardan tolanishi koʻzda tutilgan.

II guruh iste'molchilari Qoidalarda belgilangan tarzda «Tâminotchi» tomonidan taqdîm qilingan hisobvaraq-fakturalarga asosan, Moliya vazirligi Gʼaznachiligi orqali suv taʼminoti va oqova suvini chiqarish uchun otkazilgan mablag'lar orqali amalga oshiriladi.

1.2. «Tâminotchi»dste'molchini sifatlari ichimlik suv bilan taʼminlash va dste'molchidan oqova suvlarni qabul qilib olish majburiyatini oʻz zimmasiga oladi.

1.3. «Iste'molchi» Tâminotchiqa ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun toʼlovlarni xar oyning 10 sanasigacha 100 foizlik oldindan haq toʼlash tariqasida amalga oshirish majburiyatini oʻz zimmasiga oladi.

1.4. Taraflar ushbu shartnomaning ichimlik va oqova suv xizmatlari boʻyicha shartlarini bajarish, Ozbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga, Ozbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyuldaggi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Iste'molchilarga suv taʼminoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish Qoidalari»ga (keyinchalik matnda – Qoidalalar deb yuritiladi), hamda mahalliy hokimiyyat tomonidan tasdiqlanadigan maxsus ustama haqi 1 m<sup>3</sup> ichimlik suv uchun 50 soʻm, 1 m<sup>3</sup> oqova suv xizmati uchun 50 soʻm bilan birga «Tâminotchi» tomonidan taqdîm qilingan ichimlik va oqova suv tizimiga ulanish uchun ruxsat etuvchi hujjatlarga rivoja qilish majburiyatini oʻz zimmasiga oladilar.

### II. Umumiy qoidalar

2.1. «Iste'molchi» Tâminotchi tashkiloti ruxsati bilan va u texnik imkoniyatlarni mavjud deb topgan holatlarda, oʻz tasarrufidagi ichimlik va oqova suv tarmoqlariga, inshoot va qurilmalarga subiste'molchilarning ularishiga ruxsat berish huquqiga ega.

2.2. «Iste'molchi» bilan subiste'molchi oʼtasida toʼlov masalalarida paydo boʻladigan nizolar «Tâminotchi» tashkiloti tomonidan koʻrib chiqilmaydi.

2.3. Agar «Iste'molchi» va unga ulangan subiste'molchi turli guruh va toifali iste'molchilariga mansub boʻlsa, «Tâminotchi» tashkiloti bilan shartnomani «Iste'molchi» ham, subiste'molchi ham tuzadi va sunvi hisobga olish priborini oʼmatish har ikkalasi uchun ham majburiyat hisoblanadi.

2.4. Ichimlik suvdan dov-darxatlarni sugarish uchun foydalanimishiga quyidagi istisno holatlarda yoʻl qoyiladi: irrigatsiya suvi boʻlmaganda, tâminotchi tashkiloti quvvat mavjud boʻlganda va mahalliy davlat hokimiyyati organlari tomonidan tasdiqlangan jadval boʻyicha, faqat tungi vaqtida (soat 00:00 dan soat 05:00 gacha) yoʻl qoyiladi.

2.5. Ichimlik va oqova suv xizmatidan iste'molchi xojalik-iste'mol, maishiy ehtiyoj va yongʼinlarni oʼchirish xamda texnologik va ishlab chiqarish jarayonlari uchun foydalananadi.

2.6. Sunvi hisobga olish priborlari Ozbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan tekshirilib plombalanadi, hamda «Tâminotchi» tomonidan plombalanishi lozim. Shuningdek, ichimlik suvini xisobga olish priborini yechish, qiyoslashdan otkazish va oʼmatish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

2.7. «Iste'molchiga oʼmatilishi lozim boʻlgan suv oʼlchash priborining shartli otkazgichining diametri (kalibri) hisob-kitob asosida aniqlanadi, obʼektning maksimal suv iste'moli va minimal suv iste'moliga tekshiriladi hamda «Iste'molchi» bilan kelishiladi. Hisoblash pribori uchun oʼmatilgan minimal iste'mol miqdorida kam miqdorda suv iste'mol qilinganda, «Tâminotchi» xodimi suv oʼlchash tarmogini qaytadan qurilma bilan taʼminlash uchun ko'rsatma beradi, ushbu ko'rsatma bajarilmaganda, hisoblash priborining ko'rsatkichlari qabul qilinmaydi va hisoblash Qoidalarda oʼmatilgan tartibda amalga oshiriladi.

2.8. Ichimlik va oqova suv xizmatlari xojaligining rekonstruksiysi, hisoblash priborlarini ishga tushirish, hisoblash priborlarini almashtirish, yangi subiste'molchilarining ularishi «Iste'molchi» tomonidan faqat «Tâminotchi» tarafidan tasdiqlangan texnik shartlar va loyiha asosida amalga oshirilishi mumkin boʻlib, ular «Iste'molchining soroʼnomasi asosida, barcha tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda beriladi. «Tâminotchi»dan olingan texnik shartlar asosida, «Iste'molchi» buyururhasiga asosan, amaldagi meʼyor, qoidalar va boshqa meʼyoriy hujjatlarni asosida ishlab chiqiladi.

2.9. Qurilgan ulamalarning ishga tushirilishi «Tâminotchi» tomonidan, «Iste'molchi» va qurilish tashkilot vakillarining ishtirokida amalga oshiriladi.

2.10. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun tariflar va ustama haq miqdori oʻzgargan sanasidan qafʼi nazar, ushbu xizmatlar yuzasidan «Iste'molchi» bilan tuzilgan shartnoma oʻz kuchini saqlab qoladi va «Iste'molchi» ko'rsatilgan xizmatlar uchun, yangi tariflar asosida, ular kiritilgan sanadan eʼtiboran toʼlovlarni amalga oshirishi shart.

2.11. Quyidagilar «Tâminotchi» tashkilotlari bilan «Iste'molchi»lar shu jumladan, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari ortasidagi, ichimlik va oqova suv xizmatlari tarmoqlari, inshootlari xamda qurilmalariga xizmat ko'rsatish, ulaming texnik holatini saqlash va foydalinish yuzasidan javobgarlik chegaralari hisoblanadi:

a) ichimlik suv iste'moli uchun – tarmoqqa ularishini uzib qo'yuvchi kirish qulfi. Kirish qulfi bilan ichimlik suvga ularish, «Iste'molchining ichki ichimlik suvi tizimining bir qismi hisoblanadi;

b) oqova xizmati uchun – «Iste'molchi» oqova tizimining ichki qismi hisoblanuvchi, magistral oqova tarmogiga ularish nuqtasidagi chiqaruv qudugi. Agar chiqaruvchi oqova qudugi (kamerasi) magistral oqova tarmogida joylashgan boʻlsa, ushbu qudug «Tâminotchi» tashkiloti oqova tarmogining bir qismi hisoblananib, unga tutashtiruvchi foydalinish chizigi esa «Iste'molchining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

### III. Taraflarning huquq va majburiyatlari

#### 3.1. «Iste'molchi» ning huquqlari:

3.1.1. Tegishli safat darajasidagi ichimlik suv va oqova suv tarmoqlariga xizmat ko'rsatish talablarini bajarmaganligi uchun «Tâminotchi» tashkilotidan qonunchilikda va shartnoma shartlarida ko'rsatilgan miqdorda jarima (penya)lar toʼlashni talab qilish;

3.1.2. «Tâminotchi» tashkilotin shartnomani bekor qilish toʼgʼrisida, uning bekor qilinishidan kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda va ushbu muddatda suv taʼminoti yoki oqova sunvi chiqarish boʼyicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun toʼlovlarni toʼliq amalga oshirgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

3.1.3. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun amalga oshirilgan toʼlovlarning holati, qarzlarining yoʼqligi haqidagi maʼlumotlar va maʼlumotnomani shaxsan yoki oʼz vakili orqali bepul olish;

3.1.4. «Tâminotchi» tashkilotidan ichimlik va oqova suv xizmatlari hajmi va sifati, ularni amalga oshirish shartlari, toʼlovlar tarifi va tartiblarining oʼzgarishi haqidagi maʼlumotlarni bepul olish;

3.1.5. Ichimlik va oqova suv xizmatlari ko'rsatilmayotganligi yoki ularning past sifatda ekanligi toʼgʼrisidagi dalolatnomada taqdîm etilgandan keyin 18 soat mobaynida «Tâminotchi» tashkilotidan nosozlik va kamchiliklarni bartaraf etish boʼyicha maʼlumotlarni olish;

#### 3.2. «Iste'molchi» ning majburiyatlari:

3.2.1. Oqava tarmogida avariya boʼlgan taqdirda yertoʼla xonalarini suv bosishidan saqlaydigan barcha oʼchiruvchi qurilmalarning but saqlanganligi, ishga yaroqiliigi va normal texnik holatda boʼlishini taʼminlash;

3.2.2. Iste'molchiga qarashli sanitariya asboblari, oqava tarmoqlari, inshoot va qurilmalarda tamanbing yo'qligi, reviziylarning zinch yopilmasligi, nosoz texnik holati tufayli iste'molchining oqava tarmoqlarida yoki «Taminotchi» tashkilotida, ichimlik suv va oqovaning tashqi tarmoqlarida avariya (tigilib qolish, suv bosish) sodir bo'lishi sababli yerto'la xonalarini suv bosishi oqibatida yetkazilgan zararni qoplash;

3.2.3. «Taminotchi» tashkiloti bilan hisob-kitob qilish uchun foydalaniladigan suvni hisobga olish pribori, aylanma liniya zulfini, yong'in zulfinlari, giderantlar va uning hududida yoki tasarrufida bo'lgan hamda «Taminotchi» tashkiloti tomonidan plombalangan boshqa ichimlik suv qurilmalaridagi plombalarning butligi va saqlash;

3.2.4. «Taminotchi» tashkilotiga ichimlik va oqova suv tarmoqlari, inshootlari va qurilmalarining shikastlanishi tufayli yetkazilgan zarar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlik;

3.2.5. Ichimlik suvi ta'minotining yong'inga qarshi tizimidan foydalanish toxtatilganda dste'molch 24 soat mobaynida «Taminotchi» tashkilotiga plomba uzilgani to'grisida dalolatnomaga taqdim etishi va zulfinlarni plombalash uchun «Taminotchi» tashkiloti vakilini chaqirish;

3.2.6. «Ta'minotchi» bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq majburiyatlariga rivoja qilish, har oyning 23 dan 25 gacha sanasida ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va aniq yechib olish hamda ushbu ko'rsatkichlarni «Ta'minotchi»ga kechikmagan holda taqdim qilish va to'lovni amalga oshirish.

### 3.3. «Ta'minotchi» ning huquqlari:

3.3.1. «Taminotchi» tashkiloti, iste'molchini 7 kun avval yozma ravishda ogohlantirgan holda, quyidagi holatlarda suvni uzatish va oqova suvlarni qabul qilishni to'liq va qisman to'xtatish mumkin:

a) «Iste'molchi»ga tegishli va uning tasarrufida bo'lgan ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilma va inshootlarning texnik holati qoniqarsib bo'lganda va «Ta'minotchi» tashkiloti vakillari tomonidan aniqlangan texnik foydalanishdagi xatoliklarni bartaraf etish bo'yicha «Ta'minotchi» tashkiloti talablari iste'molchi tomonidan bajarilmaganda;

b) «Ta'minotchi» tashkilot mansabdor shaxsi iste'molchining suvni hisobga olish uzeli, ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilmalari va inshootlarini nazorat qilish hamda suvni hisobga olish pribori ko'rsatkichlarni qayd etish, plombalarni o'rnatish maqsadida ko'zdan kechirish, belgilangan limitdan ko'p sarf qilinganda suv berishni muvofiqlashtirish va «Ta'minotchi» tashkiloti naryadlari bo'yicha boshqa ishlarni bajarish uchun kelganda iste'molchi tomonidan asossiz ravishda kiritilmaganda;

v) «Ta'minotchi» tashkiloti tomonidan iste'molchi ulangan ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilmalarida rejali-ogohlantirish tarzida ta'mirlash hamda xizmat ko'rsatish ishlari o'tkazilganda, shuningdek, yangi iste'molchilarni ulash ishlari amalga oshirilganda;

g) «Iste'molchi» tasarrufida bo'lgan ichimlik va oqova suv tizimlari yoki tarmoqlariga subabonentlarning o'zboshimchalik bilan ulangani aniqlanganda;

d) «Iste'molchi» tomonidan ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun belgilangan muddatlarda haq to'lammaganda;

ye) «Iste'molchi»ning tasarrufida bo'lgan ichimlik va oqova suv tarmoqlariga, qurilmalariga «Ta'minotchi» tashkilotidan ulanish uchun belgilangan tartibda ruxsatnomasi olgan subabonentlarning tegishli tartibda ulanishi rad etilganda;

yo) «Iste'molchi» tomonidan shartnomaga shartlari bajarilmaganda va u oqizilayotgan oqova suvlari miqdori va tarkibi bo'yicha shartlarga rivoja qilmaganda.

3.3.9. «Ta'minotchi» tashkiloti quyidagi holatlarda oldindan xabar qilmasdan suv uzatishni to'liq yoki qisman to'xtatishga haqlidir:

a) «Ta'minotchi» tashkilotining elektr ta'minoti to'xtatilganda;

b) Tabiiy ofatlar ro'y berganda;

v) Avariya holatlari;

g) Yong'in chiqqan joylarga suv uzatishni ko'paytirishga zarurat tug'ilganda.

### 3.4. «Ta'minotchi»ning majburiyatları:

3.4.1. Suv ta'minoti va oqova suvni chiqarib yuborish yuzasidan shartnomaga shartlarini bajarish;

3.4.2. Ichimlik va oqova suv tarmoqlarining texnik holatini mutazam ravishda nazorat qilib borish;

3.4.3. Tarmoqdagagi ichimlik suv xizmati monitoringini olib borish;

3.4.4. Iste'molchilarning ichimlik va oqova suv tizimlariga ulangan ichimlik suv va oqava tarmoqlari, inshootlari hamda qurilmalarining holatini va ulardan foydalanishini mutazam ravishda nazorat qilib borish, ularidan samarali foydalanishni tashkillashtirishda iste'molchilarga amaliy yordam ko'rsatish;

3.4.5. Iste'molchilar tomonidan suvni behuda sarfining olidini olish, sanoat korxonalarini va ularga tenglashtirilgan korxonalarida suv berish bo'yicha belgilangan limitlarga rivoja qilinayotganini mutazam ravishda nazorat qilish;

3.4.6. Suv iste'moli belgilangan me'yor (limit)lardan ortib ketgan holatlarda «Taminotchi» tashkilotlariga belgilangan tariflarga nisbatan orttiriluvchi 10,0 koeffitsienti qo'llash;

3.4.7. Oqova suv tizimiga oqizilayotgan oqovalarning xizmati monitoringini ta'minlash;

3.4.8. Shartnomaga shartlariga muvofiq o'z majburiyatlarini bajara olmagan holatlarda iste'molchiga penya hisoblash;

3.4.9. Iste'molchilarning shartnomaga shartlariga rivoja etishmagani masalasi bo'yicha sud organlariga murojaat qilish;

3.4.10. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovning holati, qarzlarining yo'qligi haqidagi ma'lumotlarni iste'molchilarga bepul taqdim etish;

3.4.11. Ichimlik va oqova suv xizmatlari tariflaridagi o'zgarishlar haqida ular amalda joriy qilinishidan 15 kun avval ommaviy axborot vositalari yordamida iste'molchilarni xabardor qilish;

3.4.12. Ichimlik va oqova suv xizmatlarini ko'rsatishda ro'y berishi mumkin bo'lgan rejali to'xtatish va uzilishlar haqida iste'molchilar uzilishlar boshlangungacha 10 ish kunidan kechikmay ogohlantirish.

## IV. Taraflarning javobgarligi

4.1. «Ta'minotchi» ushbu shartnomaga muvofiq majburiyatlarini bajarmaslikda yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda kelib chiqqan zararni, «Iste'molchi» esa yetkazilgan haqiqiy zarar o'rmini qoplashi shart.

4.2. «Iste'molchi» quyidagi uchun javobgardir:

a) Ichimlik suvni hisobga olish pribori plombalari butligi, aylanish chizig'i jo'mragi, giderant va boshqa suv uzatish moslamalaridagi qismlarining hududidi va tasarrufi bo'lgan plombalangan hisoblash qurilmalarining butun saqlanishi uchun;

b) Suv tarmoqlariga o'z boshimcha ulanib olish, sovuq suvni hisobga olish qurilmalarining qasddan buzilishiga yo'l qo'yish hamda suv hisoblash priborlaridagi ko'rsatkichlarni tashqaridan aralashgan holatlari uchun;

v) O'zboshimchalik bilan qurilgan inshootlar sababi tarmoqlardagi avariylar bo'lgan holatlarda;

g) Drenaj tizmi mavjud bo'lsa «Iste'molchi» hududida joylashgan oqova tarmog'iga yomg'ir va erigan qor suvlarning tushishiga yo'l qo'ymaslik. Ushbu belgilangan uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

d) Qonunchilikda o'matilgan boshqa hollarda.

4.3. «Ta'minotchi» quyidagi hollarda javobgardir:

a) Amildagi me'yoriy-huquqiy hujjalarning talablariga muvofiq va qonunchilikda ko'zda utilgan boshqa hollarda;

b) «Iste'molchi»larga ichimlik va oqova suv xizmatlaridan foydalanish uchun zarur bo'lgan texnik shartlarni o'z vaqtida va ishonchli taqdim qilinishi uchun;

v) «Iste'molchi»ning hayoti, salomatligi va mol-mulkiga yetkazilgan zarar, ma'naviy zarar uchun qonunchilikda o'rnatilgan tartib va miqdorda qoplash;

## V. Suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun hisoblar va to'lovning tartibi

5.1. Ichimlik va oqova suv ta'minoti tizimidan chiqarilgan (qabul qilingan) suvning hisobi hisoblash pribori mavjud bo'lganda, hisobga otish priborining ko'satkichlari muvofiq amaldagi tariflar boyicha QQSni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

5.2. «Iste'molchi» ichimlik va oqova suv xizmati uchun hisobga olish priborlari mavjud bo'lganda oxirgi uch oyning o'rtacha sarfi bo'yicha keyingi oy uchun har 10-sanasiga qadar 100 foiz oldindan haq to'lashni amalga oshirishlari lozim.

5.3. To'lovning shartnomada belgilangan kechiktirilgan har bir kuni uchun iste'molchi 0,4 foiz penya to'laydi. Ammo bu ko'satkich jami kechiktirilgan summaning 50 foizidan oshmasligi lozim.

5.4. «Iste'molchi» keyingi oy uchun har oyning 10-sanasiga qadar 100 foiz oldindan haq to'lovlarini amalga oshirmsalar, iste'molchilarni yozma ravishda xabardor tarmoqlaridan uzbek qo'yish yoki bilan undirish choralarini koradi.

Bunday hollarda yong'indan saqlanish va tashkilot hisobiga mablaglarni otkazish orqali undiriladi;

5.5. Oqova tizimiga kelib tushuvchi oqova suvining miqdori, ichimlik suv tarmogidan yetkazib beriladigan ichimlik suv miqdoriga teng. Markazlashgan issiq suv tamnoti mavjud bo'lgan hollarda, istemol qilinuvchi ichimlik suv miqdoriga oqova suv tarmoqlari xisobi uchun 2,0 koefitsient qolilanadi. «ste'molchining ozida suv ta'minotining qurilmalari mavjud bo'sa, oqova suvlarning miqdori ushbu suv qurilmalarining mahsulorligiga o'matligan va ro'yxta olingan hisoblash priborlarining ko'satsatichlariga) k'opaytiladi. Ichki suv ta'minoti tizimi «ste'molchining shaxsiy avtonom manbasi bilan bog'liq bo'lmasligi lozim.

5.6. Ob'ekt egasi avtonom suv ta'minoti (quduq, ochiq suv olish havzasi, irrigatsiya tizimi)ga va (yoki) markaziy oqova tizimidan boshqa oqova tashlash manbalari ega bo'lgan holatlarda «Taminotchi» tashkiloti bilan shartnoma tuzish uchun maxsus tabiiy suv ob'ektlaridan maxsus suv olish yoki istemol qilish uchun ruxsatnomani qoshimcha ravishda taqdim etishi zarur.

5.7. Suv ta'minotining xususiy avtonom manbai (arteziyan skvajinasini, quduq, ochiq suv havzasi, irrigatsiya tizimi va boshqalar) mavjud bo'lganda oqova tizimiga oqova suvlarni oqizish uchun to'lovlardan o'matligan nasosning ishlab chiqarish quvvati yoki o'matilgan va ro'yxtadan o'tkazilgan hisoblash priborining ko'satsatichlari asosida amalga oshiriladi. «ste'molchiga qarashli bo'lgan avtonom suv ta'minoti manbaining ichki tizimi markaziy suv ta'minoti tizimi bilan tutashmagan bo'lishi shart.

## VI. Aloxida shartlar

6.1. Ob'ekt egasi o'zgarganda istemolchi chiqib ketishidan 7 kun avval mavjud qarzlarini tolab, bu haqda «Taminotchi» tashkiloti bilan dalolatnoma imzolashi shart. «Istemolchi» chiqib ketgach suvni hisobga olish pribori, plombalarning butligi va qoplanmagan debitor qarzdarlik uchun javobgarlik ob'ektning yangi egasi zimmasiga yuklanadi.

6.2. Yetkazib berilgan yoki qabul qilingan ichimlik suvi xajmi qurvuring o'tkazish qobiliyatidan kelib chiqib oyning kalendar kunlari hisobidan quydagi formula asosida hisoblanadi:

$$Q = M \times F \times \sqrt{2g \times H} \times t$$

bunda: M=0,60ga teng bo'lgan zulfin orqali suv sarfi koefitsienti;  
F=suyuqlik oqib otadigan quvur yoki teshik kesimi maydoni (ichki diametr boyicha)m<sup>2</sup>;  
g= 9,81 m/sek ga teng bo'lgan erkin tushish tezligi;  
N=suvning metrlardagi bosimi;  
t=vaqt- 24 soat, sekundlarda.

### Quyidagi holatlarda yuqoridaq formula asosida hisoblanadi:

6.2.1. «ste'molchi»da suv olchash pribori va moslamalari yotq bo'lgan holatlarda (yoki nosoz xolatda);

6.2.2. Suv olchash pribori yoki moslamasi «Taminotchi»da ro'yxtadan otmagan taqdirda;

6.2.3. Ichimlik suvi bilan ozboshimchalik bilan foydalanganda;

6.2.4. Suv olchash pribori, moslamasi ishdan chiqqan, singan, buzilgan holatda, sarflangan suv hajmi songgi tuzilgan dalolatnoma muddatidan yangi suv o'lchash pribori o'matilgan (ro'yhatdan o'tkazilgan) kungacha hisoblanadi;

6.2.5. «Taminotchi»ning suv olchash bo'g'ini diametiri kichikroq bo'lgan moslamaga almashtirish to'grisidagi talabnomasi qondirilmagan va bajarilmagan holatlardan;

6.2.6. Suv olchash priborining hisob-kitobini olib borish bo'g'indagi qoyilgan himoya qoplamiga (plombaga) ruxsatsiz tegilish natijasida, ichimlik suv sarfini aniqlash imkoniyati chegaralanganda;

6.3. Ichimlik va oqova suv tizimlariga (jumladan yong'indan saqlanish gidrant va quvurlariga) ozboshimchalik bilanulanib olingen va foydalanilgan holatlardan «Taminotchi» tomonidan dalolatnoma tuziladi va shu tuzilgan dalolatnoma ozboshimchalik bilanulanib olgan shaxsning javobgarligi darajasini aniqlash aniqlanganda. «Taminotchi» yetkazilgan zararni hisoblash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda:

- to'lov muddati, eng songgi tuzilgan dalolatnoma sanasidan ozboshimchalik bilanulanib olingen kun sanasigacha yoki yangi suv olchash pribori ornatilib,

- ro'yhatdan o'tkazilgan kungacha yoki ozboshimchalik bilanulanish uzbek tashlangan kunga qadar hisobga olinadi;

- ozboshimchalik bilanulanib olingen sanadan bu haqda malum bo'lgan sanagacha, agar «Taminotchi» balansdagi tarmoqlarga utanish sodir etilgan bo'lsa, bu muddat davo arizasi yozilgan muddatdan oshmasligi zarur. Agar ozboshimchalik bilanulanib olingen sanani topish, aniqlash mumkin bo'lmasa, bu muddat davo muddatiga teng deb olinadi.

6.4. Texnik shartlar 2 yil muddatga beriladi. Belgilangan muddat tugagach buyurtmachi (obektni loyxalashtirish va qurishni boshlash uchun) loyiha muddatini chozdirishi yoki yangi texnik shartlarni olishi zarur.

Texnik shartlari mavjud bo'lmagan holda yoki muddati otgan holda, «Taminotchi» tomonidan suv uzatish xizmatlarini yakunlashga asos bo'ladi.

6.5. «ste'molchi» ichimlik va oqova suvni tarmoqlariga ularish sanasi haqidagi hujjatlarni taqdim etmagan holatlarda «Taminotchi» tomonidan xokim qarori va kadastr hujjatlari hamda shu kabilar asosida hujjat bilan tasdiqlangan ularish sanasi boyicha hisob-kitob qilishga haqlidir.

6.6. Ishlatilgan ichimlik suvi va qabul qilingan oqova suv uchun to'lovlardan «Taminotchi» tomonidan taqdim etiladigan to'lov talabnomalari asosida ularga xizmat qiluvchi banklar orqali amalga oshiriladi. Bu to'lovlardan «ste'molchi» tomonidan 3 kunlik muddat ichida akseptisiz tartibda amalga oshiriladi. To'lovlardan o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda «Taminotchi» kechiktirilgan to'loving har bir kuni uchun 0,4 foiz penya yozadi va uning umumiy qiymati asosiy to'loving 50%dan oshmasligi lozim.

6.7. Oqova tizimiga ruxsat etilmagan yomg'ir va erkin qor suvlari oqizilayotgan, ishlab chiqarish oqova suvlarni «ste'molchilar» tomonidan tashlash tartibi Ozbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasingin 2010 yil 3 fevral kunida qabul qilingan 11 sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ishlab chiqarish oqova suvlarni qabul qilish qoidalari” hamda ifloslantiruvchi moddalarning Ozbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining oqova tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun «ste'molchilar» belgilangan tarifga nisbatan 3 (uch) barobar ortiriluvchi koefitsient miqdor tartibida hisoblanadi.

6.8. Oqova suvni chiqarib yuborishning hajmi va tarkibi boyicha meyorlar bilan belgilangan oqizishning yoi qoyiladigan cheklangan miqdoridan ortiqcha oqova suvlari va ifloslantiruvchi moddalarning chiqarish taqjilaniadi.

6.9. Ifloslantiruvchi moddalarni normativdan ortiqcha oqiziganligi uchun kompensatsiya to'lovlarni hisoblab yozish tartibi Ozbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasingin 2018 yil 11 oktabrdagi “Tabiatni muhofaza qilishni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisidagi” 820-sont qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

6.10. Ishlab chiqarish oqova suvlarni qabul qilish qoidalari hamda ifloslantiruvchi moddalarning Ozbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining oqova tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun kompensatsiya to'lovlarni hisoblash tartibi asosida amalga oshiriladi, debitor qarzdarlik to'lanmagan taqdirda «ste'molchi» oqova tarmoqlaridan uzb qoyiladi.

6.11. Hisob-kitobning noto'gri qilinganligi (tariflarning noto'gri hisobiga olinganligi va shu kabi holatlardan) to'grisida «ste'molchi» yoziladigan etiroznomalar hujjati olingandan keyin 5 kun muddatda «Taminotchi»ga taqdim etilishi kerak. Etiroznomalar «ste'molchini» to'lov talabnomasi va xujjatida ko'satsatilgan summani to'liq va belgilangan muddatda to'lashdan ozod qilmaydi.

## VII. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Taraflar ortasida shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar, kelishuv yoli bilan hal qilinadi.

Agarda ikki tomonlama kelishuvga erishilmasa, nizolar Ozbekiston Respublikasi qonunchilikiga muvofiq yuridik «ste'molchi» davlat ro'yxtidan otgan sud organlarida ko'rib chiqiladi.

7.2. Ushbu shartnomada belgilangan holatlardan yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda Qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

8.1. Agar ushu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki toliq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch (fors major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlар muzkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek, ushu holatlari yuzaga keltirgan vaqtiga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Fors-major holati mavjud bo'lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major xolati boshlangan muddatlarni ko'rsatgan holda yozma ravishda ogohlantirishi lozim.

8.3. Agar fors-major holating shartnoma shartlarini bajarishga uch oydan ko'p muddat to'sqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

#### IX. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1 Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikki tarafda bir nusxadan saqlanadi.

9.2 Shartnoma gaznachilik bo'linmalarida ro'yxtarga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yilning 31 dekabrigacha amal qiladi.

#### X. Taraflarning yuridik manzili:

«TA'MINOTChI»

“Navoiy suv ta'minoti” MChJ

Nurota tuman b'o'limi

Manzil: Nurota shahri

H.Olimjon ko'chasi 30-uy

Tel: 79 523-14-92

Bank: ATIB Ipoteka bank

MFO: 00205, INN 300024824

x/r: 22638000204548392365

Rahbar

M.O.

«5»

“NAVOIY SUV TA'MINOTI” OZBEKISTON RESPUBLIKASI FUGARORLIK KODEKSI VA “XOJALIK YURUVUCHI SUB'EKT'LARNING SHARTNOMAVIY-HUQUQIY ASOSI TO'GRISIDAGI QONUN TALABLARIGA MUVOFIQ TIZILGAN

«ISTE'MOLChI»  
Nurota 8-Yevar  
8-yodobus 139

Manzil

Tel: 79 523 18 18, faks

g'az/h-r 2340 2000 300 0000 1010

Bank 100003 5014 5014 5014

Bank kodи 00014 STIR 206 32 63 01

XHTUT

Shaxsiy raqam

Shaxsiy h-r 10000228 601223870 P36 10245001

Bank 100003 5014 5014 5014

Bank kodи 00014 STIR 206 32 63 01

Rahbar

(Taraflarning yuridik manzili)

Rahbar

(T.I.O. imzo)

2022 y.

#### Yuridik xulosasi:

Ushbu shartnoma Ozbekiston Respublikasi Fugororlik kodeksi va “Xojalik yuruvuchi sub'ektlarning shartnomaviy-huquqiy asosi to'grisidagi Qonun talablariga muvofiq tuzilgan

Yuriskonsult:

«5» of 2022 y.